

<https://hstryres.uz/journal/index.php/makro>

2024, № 2 (4)

ISSN-3030-3761



ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР

Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES

Scientific journal

ТОШКЕНТ-2024

ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
HISTORICAL RESEARCHES

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Сулейманов Рустам Хамидович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:

Шакиров Ильяс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАХРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Академик

Ўзбекистон Миллий университети

Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Холиқулов Ахмад Баймахаматович
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Габриэльян Софья Ивановна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Убайдуллаева Барно Машрабжонова
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Очилдиев Файзулла Бобокулович
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Сиддиков Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Нарбеков Абдикамил Вафаевич
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Тухтабеков Козимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

Замонов Акбар Тургинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), профессор
Тошкент халқаро Кимё университети

Кандахаров Анваржон Хасанович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Холиқулова Шахноза Боймухамматовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Навоий Давлат педагогика институти

Нормуродов Дильмурод Рахматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Алиназарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

Усаров Умид Абдумавлянович
Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Давлат Жаҳон тиллари университети

Эгамбердиева Гузаль Акрамжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Галиба,
Исторический факультет Национального
Университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/> ; E-mail:
I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib
Faculty of history of the National university of
Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/> ; E-mail:
I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА/СОДЕРЖАНИЕ/CONTENT

1. Адилов Аброр Анварович СОВЕТ ХОКИМИЯТИНИНГ ИЛК ДАВРИДА ТУРКИСТОН ЎЛКАСИДА АМАЛГА ОШИРГАН ДИНИЙ СИЁСАТИДАГИ ВАКФ МАСАЛАСИ	4
2. Abduraxmonova Kamolaxon Ravshanjon qizi TIBBIYOT ANTROPOLOGIYASI O'RGANILISH TARIXSHUNOSLIGI	20
3. Бахранов Шерзад Таштурсунович., Сирлиев Эркин Назарович ИЗ ИСТОРИИ ТАМОЖЕННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РУССКО-СРЕДНЕАЗИАТСКОЙ ТОРГОВЛЕ	34
4. Замонов Акбар Тургинович ШАЙБОНИЙ АБДУЛЛАХОН ШАХСИЯТИ ВА УНИ ЎРГАНИШНИНГ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ЖИХАТЛАРИ	45
5. Qodirova Ra'no Mamirjonovna O'ZBEKISTON SSR MAKTABLARIDA 1930-YILLARNING IKKINCHI YARIMIDA TARIX FANINI O'QITILISHI	60
6. Maxmudova Muazzamxon Sultonmaxmudovna TEMURIYLAR SALTANATIDA SUG'ORISH TIZIMI MASALALARINI ROSSIYA IMPERIYASI VA SOVET DAVRI MANBALARIDA YORITILISHI	70
7. Нормуродов Дилмурод Рахматуллаевич XV – XVI АСРНИНГ БОШЛАРИГА ОИД “ЯНГИ САНГАНАК” ХАЗИНАСИДАГИ САМАРҚАНД ТАНГАЛАРИ ХУСУСИДА	79
8. Рахманова Одинахон Равшанбековна САММАРСКИЙ ПЕРИОД ВО ВРЕМЕНА ПРАВЛЕНИЕ ХАЛИФОВ АЛЬ-МУТАСИМА И АЛЬ- ВАСИКА	93
9. Сиддиков Равшан Бердимуратович ОЛИЙ ТАЪЛИМНИНГ ГЛОБАЛЛАШУВИ ТАРИХИНИ ЎРГАНИШНИНГ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ЖИХАТЛАРИ	101
10. Примов Мухиддин Омонович ЎЗБЕКИСТОНДА КАРТОГРАФИЯ МУТАХАССИСЛИКЛАРИ ОЧИЛИШИ ВА КАРТОГРАФ КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ МАСАЛАСИГА ДОИР	118
11. Hakimova Shoiri Sag'dullayevna O'ZBEKISTON ELEKTROENERGETIKA SANOATIGA XORIJY SARMOYALARNING JALB ETILISHI	135
12. Hakimova Saida Baxtiyorovna O'TOSHKENT BEKLIGI T. BURNASHEV VA M.POSPELOV NIGOHIDA	150
13. Shamsiyeva Maxfuzaxon Xuja qizi HAZRATI IMOM MAJMUASIGA TARIXIY SAYYONAT	156
14. Юнусова Хуршида Эркиновна ЎЗБЕКИСТОН ИЖТИМОЙ ҲАЁТИГА СОВЕТ МАФКУРАГА МОСЛАШТИРИЛГАН ЯНГИЧА УРФ ОДАТЛАРНИНГ КИРИБ КЕЛИШИ ҲАҚИДА БАЪЗИ МУЛОҲАЗАЛАР	162

Abduraxmonova K. R.

“Antropologiya va etnologiya” kafedrası o‘qituvchisi

O‘zbekiston Milliy universiteti

abduraxmonovakamalakamola@gmail.com

TIBBIYOT ANTROPOLOGIYASI O‘RGANILISH TARIXSHUNOSLIGI ANNOTATSIYA

Fan va texnika rivojlangan davrda barcha sohalarda bo‘lgani kabi antropologiya sohasida ham ko‘plab islohotlar hamda izlanishlar amalga oshirilmoqda. Jahonda ro‘y berayotgan turli global hodisalar natijasida yuzaga kelayotgan turli muammolar tibbiyot, xalq tabobati bilan bog‘liq bilimlarni o‘rganish hozirgi kunda antropologiya sohasidagi tadqiqotchilarning asosiy obyekti bo‘lib kelmoqda. Maqolada xorij tadqiqotchilarning tibbiyot antropologiyasi bo‘yicha olib borgan ilmiy izlanishlari, Ingliz antropologlari Jorj Foster va Barbara Andersonlarning fanga joriy qilgan “kasallik-nazariya tizimlari”, tibbiyot tizimlari tahlili keltirilgan.

Kalit so‘zlar: antropologiya, tibbiyot, sog‘liqni saqlash tizimi, kasalliklar tizimi, davolash, integratsiya, bioetika.

Абдурахманова К. Р.

Преподаватель кафедры “Антропология и этнология”

Национальный университет Узбекистана

abduraxmonovakamalakamola@gmail.com

ИСТОРИОГРАФИЯ ИЗУЧЕНИЯ МЕДИЦИНСКОЙ АНТРОПОЛОГИИ АННОТАЦИЯ

В период развития науки и техники, как и во всех областях, в области антропологии проводится множество реформ и исследований. Изучение знаний, связанных с медициной, народной медициной, различными проблемами, возникающими в результате различных глобальных событий, происходящих в мире, в настоящее время является основным объектом исследователей в области антропологии. В статье представлены научные исследования зарубежных исследователей в области медицинской

антропологии, «системы теории болезней», внедренные в науку английскими антропологами Джорджем Фостером и Барбарой Андерсон, а также анализ медицинских систем.

Ключевые слова: антропология, медицина, система здравоохранения, система болезней, лечение, интеграция, биоэтика.

Abdurakhmanova K. R.

Teacher of department of “Anthropology and ethnology”

National university of Uzbekistan

abduraxmonovakamalakamola@gmail.com

HISTORIOGRAPHY OF THE STUDY OF MEDICAL ANTHROPOLOGY ABSTRACT

In the period of development of science and technology, as in all fields, many reforms and researches are being carried out in the field of anthropology. The study of knowledge related to medicine, folk medicine, various problems arising as a result of various global events occurring in the world is currently the main object of researchers in the field of anthropology. The article presents the scientific research conducted by foreign researchers in the field of medical anthropology, the "disease-theory systems" introduced into the science by English anthropologists George Foster and Barbara Anderson, and the analysis of medical systems.

Keywords: anthropology, medicine, healthcare system, disease system, treatment, integration, bioethics.

KIRISH

So‘nggi yillarda dunyoning ko‘plab mamlakatlarida tibbiyot antropologiyasini o‘rganilishiga bo‘lgan talab oshib bormoqda. Tibbiyot antropologiyasi antropologiyaning ijtimoiy, madaniy, biologik va lingvistik antropologiyadan sog‘liq va farovonlikka ta’sir qiluvchi omillarni, kasallikning tarqalishi, oldini olish va davolashni o‘rganuvchi fan sohasi hisoblanadi[1, 6]. 1930-yillarda Amerika hindularining diniy e’tiqodlari va marosimlarini o‘rgangan antropologlar, ruhiy kasalliklar va boshqa chegaradosh ruhiy holat masalalariga katta e’tibor berilishi ingliz antropologi Rut Benedikt[2] tadqiqotlari misol bo‘la oladi. 1950-yillarda Amerika antropologlarining tibbiyot sohasiga qiziqishi shifokorlar uchun

kutilmagan hodisa sifatida qaralgan bo'lsa-da, rivojlangan mamlakatlardagi shifokorlar va sog'liqni saqlash hodimlari antropologlarni qo'llab-quvvatlashga harakat qilishdi. 1963-yilda Finlyandiya, Meksika va AQShda dala tadqiqotlari bilan mashhur Konnektikut universiteti olimi Pertti Peltto "Medical Anthropology" jurnalini tashkil etdi. 1970-yilning dastlabki oylarida AQShda "Tibbiyot antropologiyasi jamiyati" tashkil etilishi natijasida Gollandiya, Ispaniya, Braziliya, Hindistonda tibbiyot antropologlar tadqiqotlarini nashr etishga ixtisoslashgan davriy nashrlar paydo bo'ldi[3, 5]. 1982-1983 yillar tibbiyot antropologiyasida "siyosiy iqtisodiy yondashuv"ning rivojlanishi Amerika tibbiyot antropologiyasida yangi yondashuvning asosiy nazariyachilaridan bo'lmish Xans Bayer (Hans Baer) va Merrill Zinger (Merrill Singer)lar salomatlikga ijtimoiy tengsizlik, qashshoqlik, urush, zo'ravonlik qanday ta'sir qilishini o'rganib, o'zlarining bir qancha asarlarida o'z fikrlarini keltirishdi.

Tibbiyot antropologlari uchun eng muhim masalalardan biri bu jamiyat kasalliklardan himoyalaniş uchun nima qiladi? Odamlarning harakatlari nimaga bog'liq? Bu masalalarning yechimi sog'liqni saqlash muammolariga individual yoki jamoaviy (ijtimoiy) javob berish shakllari aynan madaniyat tomonidan belgilanishini tushunishga olib keldi. Chunki dunyoda juda ko'p turli xil madaniyatlar mavjud bo'lib, ko'p kasallikning kelib chiqish sabablarini aniqlashning turli usullari mavjud.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Tibbiyot antropologiyasi dastlab "etnomeditsina", "sog'liqni saqlash antropologiyasi atamaları bilan qo'llanila boshlandi. XIX asrda ilmiy sohada golland tilidan kirib kelgan "medische anthropologie" ya'ni "tibbiyot antropologiyasi" tushunchasi keng qo'llanila boshlandi. Tibbiyot antropologiyasi mustaqil atama sifatida 1963-yildan boshlab antropolog olimlar tomonidan qo'llanilgan[4].

Tibbiyot antropologiyasining tadqiqot obyekti o'ndan ortiq bo'lib, quyidagi yo'nalishlar eng muhim tadqiqot obyekti sifatida bugungi kunda keng qo'llanilmoqda:

- Tibbiyot ilmi va tibbiy davolash tizimidagi rivojlanishlar;
- Shifokor-bemor muloqot odobi (bioetika);
- Madaniy xilma-xillik sharoitidagi muqobil tibbiy davolash turlari;
- Jamiyat bir butunlik asosida ijtimoiy, atrof-muhit va biologik ta'sirlar natijasida kasal bo'lishi va tuzalishi;
- Tibbiy xizmatni migrantlarga bo'lgan munosabatining tanqidiy tahlili;
- Biotibbiyot va biotibbiy texnologiyalarning Yevropadan tashqari hududlardagi ta'siri.

Xorijiy tadqiqotchilardan E.H. Akherknecht[5], W.H.R. Rivers[6], Д.В. Михель[7, 84], Б.А. Никитюк[8], Т.П. Романова[9, 42], Ю.В. Бромлей, А.А. Воронов[10], М.К. Кузьмин[11], Р. З. Симонян[12] olib borgan tadqiqotlarida tibbiyot antropologiyasi nazariy izohlab berilgan.

Antropologlar Forres E. Klemens va Ervin H. Akkerkneht tadqiqotlarida ibtidoiy tibbiy e'tiqod va amaliyotlar tartibga solinib, uchta asosiy tabiiy kasalliklar mavjudligi asoslab beriladi. Ularga: o'ziga xos kasalliklar (jodugarlik va sehrgarlik), tabiatdan o'tadigan kasalliklar va ruhiy kasalliklar kiradi. Tibbiyot antropoglari "qaysi kasallik aholiga ko'proq ta'sir qilishini", "kasallik qanday qilib ijtimoiylashgan"ini o'rganadi. Kasallik ko'rsatkichlarini o'lchash davomida geografik makon va turar-joy tuzilishi va turmush tarzidagi o'zgarishlar bilan bog'liq. Tibbiyot antropoglari ilmiy izlanishlari davomida turmush tarzini qo'llab-quvvatlash, to'g'ri ovqatlanish tartibi, bolalarning o'sishi hamda rivojlanishi, homiladorlik va tug'ilish dinamikasi, surunkali va yuqumli kasalliklar, demografik o'zgarishlarni tadqiq qilib borishadi. Germaniyada Rudolf Virxov, Fransiyada Lui-Rene Villerme, AQShda Lemuel Skettok, Rossiyada Fridrix Erisman va boshqa bir qator "jamoat tibbiyoti" vakillarini shular jumlasiga kiritish mumkin. Nemis shifokori Ervin Akkerknehtning faoliyatining bir qismi aborigenlarning kasallik va davolanishga oid g'oyalari va amaliyotlariga qiziqish bo'ldi. Natijada olim ibtidoiy tibbiy e'tiqod va amaliyotlarni tartibga solish tizimini ishlab chiqdi.

Amerikalik antropologlar Jorj M. Foster va antropolog Barbara G. Andersonning “Tibbiyot antropologiyasi[13]” kitobi dastlabki darslik hisoblanib, unda tibbiyot antropologiyasining fan sifatida shakllanishi, tibbiyotdagi muammolar, bugungi kunda insoniyat tarixida sogʻliq va kasallikning ekologik va ijtimoiy-madaniy omillarga qanday taʼsir qilishi yoritilgan. Antropologlar Jorj M. Foster va Barbara G. Anderson Tibbiyot antropologiyasini toʻrt xil manbaga asoslanib oʻrganishni tadqiqotlarda keltiradi. Jumladan, fiziolog antropologlarning inson evolyutsiyasi va moslashuviga qiziqishi, ibtidoiy tibbiyotga etnografik qiziqish, madaniyat va shaxsiyat maktabida psixiatrik hodisalarni oʻrganish, xalqaro sogʻliqni saqlash sohasidagi antropologik ishlar. Jorj Foster va Barbara Andersonlar kiritgan “kasallik-nazariya tizimlari”da esa kasallikni aniqlash, sinflarga ajratish va kasallikni tushuntirish bilan shugʻullanadi. “Kasallik-nazariya tizimlari” uch qismga boʻlib oʻrganiladi. Birinchisi, Inson omili yaʼni, sehrgarlar, ruhlar yordamida kasallikni aniqlash va davolash. Ikkinchisi, tabiiy omil yaʼni, gʻarb tibbiyoti yoki biotibbiyot kasalliklarga ilmiy izoh beradi. Uchinchisi, ruhiy omil hisoblanib, kasalliklar sababi asab tizimi, ruhiy-psixik holatiga bogʻliqligi oʻrganiladi. Lotin Amerikasida “susto” yaʼni “ruhni yoʻqotish” anʼanaviy davolash usuli mavjud boʻlib, kasallikning sababi lanjlik holati, stress va ruhiy xastaliklar bilan izohlanadi.

Antropolog Alan Yang barcha tizimlarni tashqi va ichki guruhlariga, yaʼni birinchisi: mahalliy va anʼanaviy jamiyatlarga, ikkinchisi: esa anʼanaviy va zamonaviy jamiyatlarga xosdir. Birinchi holatda, kasallikning sabablari tashqi kuchlar – ruhlar, sehrgarlar, samoviy jismlar, ikkinchisida esa ichki kuchlarning roli – organ patologiyalari, hujayra va genetik tuzilmalar haqida gap boradi. Shu bilan birga, J. Foster barcha tizimlarni shaxs omili va tabiiy omilga ajratdi. Bunday tasniflash koʻp jihatdan Yangning yondashuviga oʻxshab ketadi. Fosterda tibbiy tizimlarning birinchi turi kasallikning sabablari ayrim shaxslar ekanligi bilan bogʻliq, yaʼni ruhlar, sehrgarlar, xudolar taʼsirida roʻy beradi. Ikkinchi turdagi tizimlar uchun tabiatning shaxssiz kuchlari rolini taʼkidlash mumkin. Antropolog Frederik Dann tibbiy tizimlarning mahalliy, kollektorlar, fermerlar jamoalariga xos

boʻlgan turlarini oʻrganishi natijasida, Gʻarbda “ilmiy tibbiyot” yoki “biotibbiyot” sifatida oʻrganildi.

Shuningdek, “Koinot, barcha xalqlarning tarixi va tavsifi” nomli butun dunyo xalqlari tarixini oʻrganishga bagʻishlangan koʻp jildli asarning “Tatariya, Belujiston, Butan, Nepal va Afgʻoniston” (1848) deb nomlangan qismi L.Dyubo tomonidan yozilgan boʻlib[14], “Tatariya” deb nomlangan bobida Movarounnahr, Xuroson, Mongoliya, Manchjuriya va sharqiy Turkiston hududlari toʻliq tavsiflangan. Buxoro, Xiva va Qoʻqon xonliklarining maʼmuriy hududi, davlat boshqaruvi, harbiy tizimi, soliqlar kabi ijtimoiy hayot tavsifi bilan birga, yashash tarzi, kiyinishi, ovqatlanish tartibi, bayramlari kabi etnografik maʼlumotlar ham batafsil yoritilgan. Shular qatorida iqlim, suv, havo, oʻsimlik va hayvonot olami hamda tabobat masalalari ham eʼtibordan chetda qolmagan[15].

Geografik determinizm yondashuvining asoschisi fransuz maʼrifatparvari Sh.L.Monteske turli jarayonlarga tabiiy iqlim sharoiti, atrof-muhit taʼsiri mavjudligiga tayaniladi. Tarixiy jarayonlarga muayyan davlatning joylashgan geografik oʻrni, iqlim sharoitlari ham, albatta, taʼsir etadi. Xususan, aholi salomatligi koʻp jihatdan atrof-muhitga va iqlim sharoitlariga bogʻliqdir. Oʻzbekiston iqlimining issiqligi tufayli barcha tarixiy davrlarda aholi turli yuqumli va boshqa kasalliklardan aziyat chekib kelgan. Sogʻlik hayotning shunday neʼmatidirki, baxtimizning oʻndan toʻqqiz ulushi sogʻligʻimizga bogʻliq.

Zardushtiylarning muqaddas kitobi “Avesto”da ham Oʻzbekistonning qadimgi zamon tibbiyoti haqidagi dastlabki maʼlumotlar keltirilgan boʻlib, tibbiyotning mustaqil kasb ekanligi, “Vedevdat” qismida tibbiyotga oid maʼlumotlar berilgan. “Vedevdat”ning 8 bobi (V-XII boblar)da salomatlikni saqlash uchun nimalar qilish kerakligi koʻrsatilgan. Taʼkidlanishicha, avvalo vafot etgan odamning jasadidan ehtiyot boʻlish zarur. Bunga sabab, vafot etgan odamning jasadida tiriklar uchun zararli xususiyat boʻlib, murdaga yaqinlashmaslik zarurligi tavsiya etilgan. Shuningdek, asarda Tibbiyotning asosiy vazifasi inson tanasining sogʻligʻini saqlashdan iborat, deb koʻrsatilgan.

Gippokrat tomonidan “Havo, suv va hududlar to‘g‘risida” nomli asarida etnik tibbiyot tushunchasining mohiyati, tabiiy-iqlimning inson salomatligi va kasalliklarga ta’siri yoritilgan. Miloddan avvalgi II asrning oxirida Yunon-Baqtriya davlati yemirilishi natijasida uning o‘rnida Kushon davlati vujudga keladi. Tarixiy ma’lumotlarda aytilishicha, Kushon davlati Sharq va G‘arb mamlakatlari bilan savdo-sotiq va madaniy aloqadalar natijasida tibbiyot ham rivojlanadi. Tibbiyot xorij mamlakatlaridan keltirilgan dori-darmonlar, misol uchun Xitoydan kamfora, panta (pantokrin)[16, 28] bilan yanada rivojlanadi. Bu esa insonlarning sog‘lig‘ini, hayot faoliyatini yaxshilagan, ba’zi kasalliklardan shifo topishga yordam bergan.

O‘rta asrlarda o‘lkamizda tibbiyot va tibbiy bilimlar ravnaq topdi. Bu albatta, Yevropada Avitsenna taxallusi bilan mashhur Abu Ali Ibn Sino faoliyati bilan bevosita bog‘liq. Ibn Sino “Tib qonunlari” asarini yozishda tibbiyot faniga xalqaro nuqtai nazardan yondashgani, mavjud bo‘lgan barcha tibbiy bilimlarni to‘plagan. Buyuk alloma Ibn Sino bir necha tibbiyot tizimini Yunoniston, Misr, Eron, Hindiston, Tibet va Xitoy tibbiyot tizimlarini keng va chuqur o‘rganish natijasida shu xulosaga keldiki, ushbu tizimlarning barchasi, ayrim yuzaki tafovutlarni hisobga olmaganda, klinik mavzular va realliklarga nisbatan bir xil yondashganlar.

Abu Sahl Masihiy (Abu Sahl Iso ibn Yahyo al-Masihiy-Jurjoniy) o‘z davrining katta tajribaga ega bo‘lgan hakimlaridan bo‘lib, “Tibbiyot ilmining asoslari”, “Tibbiyotning yuzta muammosi”, “Umumiy tibbiyot haqida kitob”, “Chechak haqida kitob”, “Vabo haqida kitob” nomli asarlari bizga ma’lum. Mazkur kitoblarda Masihiy nazariy va amaliy tibbiyotning muhim masalalari, bemorga to‘g‘ri tashxis qo‘yish, kasallikka mos dori tanlash, uni ishlatish usullari ko‘rsatilgan.

Abu Abdulloh Iloqiy (Sharafuddin Abu Abdulloh ibn Muhammad ibn Yusuf Iloqiy - hozirgi O‘zbekiston hududida, Ohangaron tumaniga qarashli Iloq degan joyda tavallud topgan) tib ilmiga oid “Kasalliklarning sabablari va belgilari”, “Muolaja usullari”, “Tibbiy to‘plam”, “Qisqacha qonun” kabi asarlari bizga yetib kelgan[17]. Iloqiy o‘zi ko‘rgan va davolagan kasalliklarning kelib chiqish sabablari va ularning belgilari (simptomlari)ni “Kasalliklarning sabablari va belgilari”

asarida batafsil bayon etgan. Bemorga tashxis qo'yishda Iloqiy o'sha vaqtda asosiy diagnostik usul hisoblangan tomir urishini tekshirish, bemorning ahvolini ko'zdan kechirish kerakligini yozadi. "Muolaja usullari" kitobida esa dori-darmon bilan davolash, jarrohlik usulini ishlatish, qon olish va parhez yo'li bilan davolash, tabiatning shifobaxsh omillaridan (sof havo, dengizda cho'milish, sayr qilish) foydalanish yaxshi natija berishini yozadi.

Abul Hayr Hammor (Abul Hayr ibn Sevor ibn Behnom al-Hammor)ning tibga oid "Inson a'zolarining tuzilishi", "Tabiblarning bilimini sinash", "Tutqanoq kasalligi haqida risola", "Qariyalar taomi" asarlari afsuski bizgacha to'liq holatda yetib kelmagan. Tibbiyotga oid ushbu kitoblarning mavjudligi haqida bilimlar turli tarixiy manbalar orqali bizgacha yetib kelgan.

O'zbekistonda tibbiyot tizimini o'rganilishi XX asrning 30-yillarida shakllandi. 1930-yilda Samarqandda Tibbiyot oliygohi tashkil etilishi bilan talabalarga tibbiyot tarixidan dars berildi. 1948-yilda O'zbekistonda Toshkent Tibbiyot instituti tarkibida birinchi mustaqil tibbiyot tarixi kafedrasi tashkil etildi. Bunday kafedralar O'rta Osiyoning boshqa respublikalarida ham ochildi. Tibbiyot tarixiga oid ilk maqolalar nashr qilindi. Unga qiziquvchilar anchagina bo'lib, 1957- yilda tibbiyot tarixchilari jamiyati tashkil etilishi bilan O'zbekistonda tibbiyot tarixi fani fan sifatida tashkil topdi. XIX – XX asr boshlarida Turkistondagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayot haqidagi tadqiqotlar qanchalik dolzarb bo'lishi bilan birga, ushbu davrdagi tibbiyotni o'rganish ham e'tiborga sazovor masala bo'lib kelgan. Ushbu davr tibbiyot tizimini tadqiq etishning bir necha dolzarb sabablari tibbiyot tizimida hali Yevropa madaniyati, fan taraqqiyoti kirib kelmagan paytda bizning otabobolarimiz tomonidan ishlab chiqilgan kasalliklarni davolashning qulay va oson usullari, texnika va laboratoriya rivojlanmagan bir vaqtda og'ir kasalliklarni davolashda tayanilgan manbalarni aniqlash muhimdir. Taniqli o'zbek shoiri Furqat tabib ilmidan xabardor bo'lgan. Shoir o'z uyida alohida bir xona ajratib qo'yib, shu yerda bemorlarni qabul qilgan va bemorlarga dorini ham o'zi tayyorlab bergan. Furqatning dorivor moddalar sotiladigan do'koni ham bo'lgani manbalarda keltirilgan[18, 87].

Turkistonda sog‘liqni saqlash ishini yo‘lga qo‘yishdagi muammolar, epidemiyalar xavfi, ularni bartaraf etish omillari G.I. Demboning maqolalarida asoslab berilsa, olimlarimiz A.Karimov, H.Z. Zohidovning asarlarida sovet hokimiyatining o‘rnatilishi natijasida tibbiyot tizimidagi o‘zgarishlar, kasalliklar dinamikasi o‘z aksini topadi[19, 6]. Shuningdek, tarix fanlari doktori G.E.Muminovning ham olib borgan “O‘zbekistonda sovet davrida sog‘liqni saqlash tizimi tarixi (1917-1991yillar)” nomli tadqiqotlarida ham sovet davri tibbiyot tarixi davrlashtirilgan holda tahlil qilingan. A.Y. Atabekov va M.N. Sirotinskiylar sog‘liqni saqlash sohasi tarixini Toshkent shahri va viloyati misolida tadqiq qilgan bo‘lsa, Sh.G.Yuldashev sog‘liqni saqlash sohasi tarixini Buxoro viloyati misolida, T.U. Aripova Samarqand viloyati misolida o‘rgangan. O‘zbekistonda tibbiyot tarixi va tibbiyot manbashunosligi bilan shug‘ullangan olimlardan H.Hikmatullayev, S.Karimova va M.Hasaniylarning ilmiy ishlarida turkiy tillarda yozilgan yoki ko‘chirilgan manbalar to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan. Sharqshunos H.Hikmatullayevning 1994-yil nashr etilgan “Sharq tabobati” kitobida Muhammad alayhissalomning sog‘liqni saqlashga oid hadislar, IX-XX asrlar musulmon Sharqida, xususan O‘rta Osiyo va Xurosonda yashab ijod etgan 60 dan ortiq tabib, dorishunoslar hayoti va ijodi haqida ma’lumotlar hamda Abu Bakr Roziy va Abu Ali Ibn Sinoning tibbiy risolalari o‘rin olgan. Bu risolalar kasalliklarni aniqlash va davolashda bugun ham katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Uning birinchi qismida Muhammad alayhissalomning tabobatga oid hadislar, ikkinchi qismda arab yozuvidagi IX-XX asrlarda yashagan oltmishdan ziyod Sharq tabiblarining hayoti va ijodi, uchinchi qismda ilmiy tadqiqotlar, to‘rtinchi qismda tibbiy asarlar tarjimasi o‘rin olgan.

XX asrning texnika taraqqiyoti rivojlanishi davrida, tibbiyot tizimida ma’lum bo‘lmagan kasalliklarga tashxis qo‘yish, davolash hamda profilaktika usullari yaratildi. Radiy va lazer nurlari, murakkab laboratoriya tekshirish usullari joriy qilinishi natijasida “Immunobiologik” jarayonlar tadqiq qilindi. Tadqiqotlar natijasida yurak, buyrak va boshqa a’zolarida kasalligi sababli ishga yaroqsiz bo‘lib qolgan organlarni almashtirish usulini amalga oshirish imkoniyati yaratilishi katta

yutuq bo'ldi. Muvaffaqiyatlar bilan birga yangi muammolar, kasalliklar ham aniqlandi. Texnika taraqqiyoti, qishloq xo'jaligi hamda sanoatimizda turli tuman kimyoviy moddalardan foydalanilishi, radioaktiv nurlar, atmosfera, suv havzalari ifloslanishi oqibatida insoniyat salomatligiga putur yetkazildi. Avallari ma'lum bo'lmagan kasalliklardan: nur kasalligi, kimyoviy moddalar bilan zaharlanish, SPID kelib chiqdi. Yashash tarzining haddan ortiq tezlashgani, murakkablashganligi natijasida jamiyat o'rtasida asab-nerv sistemasi kasallanish holati kelib chiqdi. Oqibatda asab, yurak-qon tomir kasalliklari soni oshdi. Sanoat, transport va boshqa sohalarda kanserogen moddalarning ishlatilishi har xil o'sma kasalliklari (rak, sarkoma) keltirib chiqardi. Klinik tibbiyot oldida aynan shu kasalliklarga qarshi davolash choralari, profilaktik choralar ichlab chiqish zaruratini keltirib chiqardi. Mustaqillik natijasida O'zbekistonda tibbiyot sohasida ham islohotlar amalga oshirila boshlandi. Sog'liqni saqlash ishini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar davlat tomonidan o'rganib chiqildi.

Mamlakatimizda zamonaviy tibbiyot tizimini tashkil etish 1917-yil noyabr oyida tibbiy ishlar bilan shug'ullanuvchi tashkilot - Sog'liqni Saqlash Xalq komissarligi ta'sis etish bilan boshlandi. Bu tashkilot o'n bitta: tibbiy ta'minot, epidemiologiya, sanitariya statistika, ilmiy – amaliy, sanitariya – texnika, sanitariya – maorifi, bemorlarni davo muassasalariga joylashtirish, sanatoriy – kurort, tibbiy hodimlarni safarbar qilish, veterinariya, adliya bo'limlaridan iborat edi. 1918-yilda Toshkentda o'rta tibbiy hodimlar tayyorlovchi “Musulmon tibbiy maktabi” tashkil qilindi. 1919-yil 13-martda Sog'liqni Saqlash Xalq komissariyati “Turkiston respublikasidagi davolash muassasalarini boshqarish” haqida nizom qabul qildi. Unda tibbiy muassalarning asosiy vazifalari belgilab qo'yilgan edi. O'sha yili 7-mayda Sog'liqni Saqlash Xalq Komissarligining faoliyati haqida maxsus nizom ham tasdiqlandi. Uning birinchi bandida “Sog'liqni Saqlash Xalq Komissariyati butun o'lkada Sog'liqni Saqlash ishlarini boshqaradi”, deyilgan edi. Shu nizomda Sog'liqni Saqlash Xalq Komissarining va bo'limlar boshliqlarining huquq va vazifalari belgilab qo'yildi. 1920-yilda Sog'liqni Saqlash Xalq Komissariyati tarkibiga oldingi o'n bitta bo'limdan tashqari yana Ona va Bolalikni muhofaza

qilish bo'limi, badantarbiya bo'limi va uy joy sanitariyasi bo'limi kiritildi. 1922-yilda Sog'liqni Saqlash Xalq Komissariyati tarkibiga Dorixonalar Bosh Boshqarmasi va Mehnatni tibbiy jihatdan muhofaza qilish bo'limi kiritildi. Shunday qilib, Sog'liqni Saqlash Xalq Komissariyati o'n oltita bo'limdan tashkil topdi.

Tibbiyot tizimlarini o'rganishda Farg'ona shahrida joylashgan oilaviy poliklinikalarda olib borilgan tadqiqotlarimizga ko'ra 1,2,3,4-sonli oilaviy poliklinikalarning 2019, 2020, 2021-yil statistik ma'lumotlari olindi. Unga ko'ra, 2018-yil 12 oy muddati davomida 3.037526 nafar umumiy aholi qabuli qayd qilinib, shundan 1098063 (36,1%) nafari kasallik sababli, 1942397 (63,9%) nafari esa tibbiy ko'rikdan o'tish uchun murojaat qilgan. Har bir aholining shifokorga qatnovi 2018 yil 12 oy muddat davomida 10,9 % ni tashkil qilgan. 2019-yil 12 oy davomida esa 3.070337 nafar umumiy aholi qabuli qayd qilinib, shundan 1049301 (34,1%) nafari kasallik sababli, 2021036 (65,9 %) nafari esa tibbiy ko'rikdan o'tish uchun murojaat qilgan. Har bir aholining shifokorga qatnovi 2019-yil 12 oy muddati davomida 10,8 % ni tashkil qiladi. Aholining kasallik sabab shifokorga murojaatining o'sish dinamikasi aynan, pandemiya davriga 2019-yilga to'g'ri kelishini ko'rsatdi.

1-jadval[20].

	Poliklinika	2019	2020	2021
Kasallanish soni				
.	1-sonli	32799	30896	30788
.	2-sonli	45079	37557	37631
.	3-sonli	27111	26690	27501
.	4-sonli	25599	31458	25159

Dala sinovlarimiz shuni ko'rsatdiki, kasalliklar tabiiy omillarga: iqlim, oziq-ovqat va boshqa munosabatlarga bog'lanadi. Har bir inson o'z maishiy-turmush tarzini o'ziga xos shaklda olib boradi. Jamiyatning atrof-muhitga, sog'liq muammolariga va kasallikka bo'lgan munosabati ham rang-barang. Insonning salomatligi ko'p jihatdan uning o'ziga bog'liq bo'lib, bunga sabab kasallikka inson hayot tarzining noto'g'ri yo'lga qo'yilganligi, o'z salomatligini himoya qila bilmasligi, zararli omillarga ruju qo'yish va shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilmaslik, noto'g'ri ovqatlanish hisoblanadi. Ijtimoiy qatlam vakillarining turmush tarzini faollashtirish, kunlik ma'naviy, fiziologik ish kunidan so'ng kechki sayrlarni tashkil qilish, sog'lom ovqatlanish ratsionini yaratish hamda amal qilish, ruhiy bosim ta'siridan chiqish uchun ko'proq kitob mutolaasi yoki sport turi bilan shug'ullanish, yilda bir marta bo'lsa ham tibbiy ko'rikdan o'tish lozim.

XULOSA

Yuqoridagilardan shunday xulosaga kelish mumkinki, XX asr oxiri XXI asr boshlariga kelib zamonaviy tibbiyot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida insonlarning hayot faoliyatida tibbiyot ajralmas qismga aylandi. Asta sekin aholining tibbiy bilimlari yanada mustahkamlandi, tibbiy malakali kadrlar ko'paydi, insonlarning tibbiyotga nisbatan ishonchi ortib bordi. Bu esa o'z navbatida inson qadr qimmatini, uning hayot faoliyatini yaxshilashga xizmat qiladigan soha ekanligidan dalolat beradi. Tibbiyot antropologlari ma'lum bir madaniyatning sog'liqni saqlash tizimi, umumiy salomatlik va davolash muolaja usullari ustida olib borilgan tadqiqotlarini empirik va nazariy jihatdan ochib berishdi. Dunyoda turli xil madaniyatlar va shunga mos ravishda kasallikka javob berishning bir-biridan farq qiluvchi usullari mavjud bo'lib, antropologlar tomonidan sog'liqni saqlash tizimini kasallikning o'ziga xos xususiyatlar bilan birgalikda tadqiq qilishi muhim ahamiyatga ega. Tibbiyot antropologiyasi ilmiy fan sifatida shakllanib, bugungi kunda antropologlarimiz tomonidan tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda.

IQTIBOSLR / ЧОШКИ / REFERENCES

1. Д. В. Михель. Медицинская антропология: история развития дисциплины Учебное пособие Саратов, 2010 ст-6.
2. Рут Бенедикт. Хризантема и меч: Модели японской культуры Москва-Санкт-Петербург 2013.
3. Д.В. Михель. Медицинская антропология: история развития дисциплины Учебное пособие Саратов, 2010, р. 5.
4. Журнал социологии и социальной антропологии. 2006. Том IX. № 1.
5. Ackerknecht E.H. "Medicine and Ethnology" Verlag nicht ermittelbar, 1953.
6. Rivers W.H.R. Medicine, Magic and Religion Routledge, 1924. P-144.
7. Д. В. Михель. Медицинская антропология: история развития дисциплины: учеб. пособ. для студ. – Саратов: Изд-во «Техно-Декор», 2010. с-84.
8. Ковешников В.Т., Б.А. Никитюк "Медицинская антропология". Издательство: К.: Здоровья 1992 г. – с 200.
9. Туганаев В.В., И. Л. Бухарина, Т.П. Романова «Народная Медицина Удмуртии». стр.42-44.
10. Бромлей Ю.В., А.А. Воронов «Народная медицина как предмет этнографического исследования», Издательство: К.: Здоровья 1976 г.
11. История медицины. Заблудовский П. Е, Крючо К Г. Р., Кузьмин М. К, Левит М. М. —М.:Медицина, 1981, -352 с.
12. Симонян Р.З. История медицины: с древнейших времен до современности: учебное пособие для студентов лечебных факультетов образовательных организаций высшего образования / Р. З. Симонян. – Чебоксары: Издательский дом «Среда», 2020. – 224 с.
13. Foster G.M., Anderson B.G. Medical Anthropology. -New York: John Wiley & Sons, 1978.

14. Dubeux L., Valmont V.M. L'Univers, ou histoire et description de tous les peuples. Tartarie, Béloutchistan, Boutanet Népal, Afganistan. – Paris, Typographie de FirminDidot Freres, 1848. P. 387.

15. Расулова Д.Б. Туркистонда тиббиёт: анъана ва инновациялар (XIX аср охири – XX аср бошлари). Француз тилидаги асарларда Туркистон табobati масалалари. талқини Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Тарих Институти. Монография. - Тошкент:2018. 208-б.

16. Qodirov A.A. O'zbekiston tibbiyoti (o'zbekistonda tibbiyotning kelib chiqishi, shakllanishi va rivojlanishi) Toshkent Abu Ali Ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2004. B.-28.

17. O'zMU. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.

18. Qodirov A.A. O'zbekiston tibbiyoti (o'zbekistonda tibbiyotning kelib chiqishi, shakllanishi va rivojlanishi) Toshkent Abu Ali Ibn Sino nomidagi Tibbiyot nashriyoti, 2004. 87-bet.

19. Каромов F. X. Туркистон АССР, БХСР ва ХХСРда Соғлиқни Сақлаш соҳасининг йўлга қўйилиши Г. Бухоро: Автореф. дисс. Тар. фан. фал. док. (PhD)- Бухоро, 2021. 6-bet.

20. Farg'ona shahri 1,2,3,4-sonli oilaviy poliklinikalarning kasallanish sonining statistik ma'lumotlari muallif tomonidan tuzildi, 2019-2021 yu.